

## XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA “RES JUDICATA” TAMOYILINI QO’LLASH MASALALARI

**Xudoyberdiyeva Shahnozabonu Umid qizi**

Jahon Iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti.

**E-mail: [xudoyberdiyevas1123@gmail.com](mailto:xudoyberdiyevas1123@gmail.com)**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.19769474>**

**Annotatsiya.** Maqolada xalqaro tijorat arbitrajida res judicata tamoyilining mazmuni, huquqiy asoslari va arbitraj amaliyotida qanday qo’llanilishiga oid dolzarb masalalarni tahlil qiladi. Xalqaro tijorat arbitrajida nizolarni qayta ko’rib chiqishni oldini olish, arbitraj qarorlarining yakuniy va majburiy kuchini ta’minlash bu tamoyilning asosiy vazifasidir.

Shu bilan birga, O’zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi doirasida arbitraj qarorlarining yakuniyligi, tan olinishi va ijrosi bilan bo’g’liq normalar o’rganiladi. Bundan tashqari, Shveysariya va Shvetsiya davlatlari xalqaro tijorat arbitrajida res judicata tamoyilining qo’llanilishi, arbitraj qarorlarining yakuniy kuchi va kollizion holatlarda qo’llaniladigan mezonlari taqqoslash orqali xorijiy tajriba tahlil qilinadi.

Xorijiy tajribani o’rganish natijasida O’zbekiston arbitraj tizimini takomillashtirish, arbitraj qarorlarini barqarorligini oshirish va yakuniylik tamoyilini mustahkamlashga doir takliflar berilgan. Tadqiqot natijalari arbitraj institutlari faoliyatini barqarorlashtirish va investetsion muhitda ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so’zlari:** Res Judicata, xalqaro tijorat arbitraji, yakuniylik tamoyili, arbitraj qarorlari, O’zbekiston qonunchiligi, Shveysariya tajribasi, Shvetsiya tajribasi, takror da’vo, arbitraj qarorlari ijrosi;

**Annotation.** The article analyzes urgent issues related to the content, legal grounds, and application of the res judicata principle in international commercial arbitration practice. The main function of this principle is to prevent the re-examination of disputes in international commercial arbitration and to ensure the final and binding force of arbitration awards.

Along with this, the norms concerning the finality, recognition, and enforcement of arbitration awards within the framework of the current legislation of the Republic of Uzbekistan are studied. Furthermore, the application of the res judicata principle in international commercial arbitration in Switzerland and Sweden, the finality of arbitration awards, and the criteria applied in conflict situations are analyzed through a comparative study of foreign experience.

Based on the study of foreign experience, proposals are made to improve the arbitration system of Uzbekistan, enhance the stability of arbitration awards, and strengthen the principle of finality. The research results serve to stabilize the activities of arbitration institutions and increase confidence in the investment environment.

**Keywords:** Res Judicata, international commercial arbitration, principle of finality, arbitration awards, legislation of Uzbekistan, Swiss experience, Swedish experience, res judicata, enforcement of arbitration awards.

### **Kirish.**

Xalqaro savdo va investetsiya munosabatlarining murakkablashuvi sharoitida nizolarni tez, ishonchli va yakuniy hal etish mexanizmlari muhim ahamiyatga egadir. Xalqaro tijorat arbitraji nizolarni tez, xolisona va davlat sudlaridan mustaqil ko’rib chiqishi imkonini beruvchi zamonaviy mexanizmdir.

Shuningdek, arbitraj qarorlarining ajralib turish sabablaridan biri qabul qilingan qarorning yakuniyligi va takror ko'rib chiqilmasligidir. Aynan shu yakuniylik vazifasini bajaruvchi res judicata arbitrajning barqarorligi va ishonchliligini asosidir<sup>1</sup>.

Res judicata tamoyilining mazmuni bir marta ko'rilgan nizoni takror ko'rib chiqilishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat va u uchta asosiy elementga tayanadi: tomonlarning birligi, talablardagi bir xillik, va nizodagi predmetning bir xil bo'llishidir. Xalqaro arbitraj amaliyotida bu tamoyilni qo'llashning o'ziga xos murakkab xarakteri bor chunki res judicata turli mamlakatlarda turli talqinlarga egaligi sababli, hakamlar hay'ati tomonidan qaysi huquqni qo'llash masalasi doimo dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda<sup>2</sup>.

Xalqaro huquq nazariyasi va arbitraj amaliyotida res judicata masalasida bir nechta yondashuvlar shakllangan. Bir tarafdin ba'zi mutaxassislar arbitrajda res judicata tamoyili milliy huquqqa tayanib belgilanishini taklif etsa, ba'zilar milliy huquqni qo'llash arbitrajning xalqaro darajada barqarorligini pasaytirishi mumkin deb hisoblaydi<sup>3</sup>.

Res judicatani qo'llashga doir tavsiyalar ham mavjud. Jumladan, Xalqaro huquq assotsiatsiyasi (ILA) 2006 yilda arbitrajga res judicata bo'yicha alohida tavsiyalarni qabul qilgan bo'lib, unda arbitraj hakamlariga avvalgi qarorlarning huquqiy kuchini aniqlashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan mezonlar batafsil bayon qilingan<sup>4</sup>. Biroq ushbu tavsiyalar majburiy kuchga ega bo'lmagan sababli, amaliyotda ularning qo'llanishi bir xil emas.

Shveysariya arbitraj qonunchiligi res judicata tamoyiliga eng aniq huquqiy yondashuvga ega mamlakatlardan biri bo'lib, u yerda hakamlar hay'ati avvalgi qarorlarning huquqiy kuchini milliy sudlar darajasidagi qat'iylik bilan tan oladi. Shveysariya arbitraj tizimi ham "yakuniylik" tamoyiliga qat'iy amal qilishi, sudlarning minimal darajada aralashuvi va arbitraj qarorlarining mustahkam himoyasi bilan ajralib turadi. Ushbu ikki mamlakat tajribasi xalqaro miqyosda eng samarali arbitraj modellari sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston uchun ushbu tajribalar nihoyatda dolzarb, chunki mamlakatda arbitraj institutlari rivojlanib, milliy qonunchilikda arbitraj qarorlarining tan olinishi va ijrosi bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Res judicata tamoyilining qonunchilikda yanada aniq belgilanishi, arbitraj qarorlarining takror ko'rib chiqilmasligi bo'yicha amaliy mexanizmlarning mustahkamlanishi xalqaro investorlar uchun huquqiy aniqlikni oshiradi hamda arbitraj tizimining ishonchliligini mustahkamlaydi. Shundan kelib chiqqan holda mazkur maqola res judicata tamoyilining nazariy asoslarini, O'zbekiston qonunchiligidagi holatini va Shveysariya hamda Shveysariya tajribasi bilan solishtirma tahlilini o'rganishga qaratilgan.

## 1. Res judicata tamoyilining nazariy-huquqiy asoslari

<sup>1</sup> Schaffstein, S. (2012). *The doctrine of res judicata before international arbitral tribunals* (Doktorlik dissertatsiyasi). Queen Mary University of London & University of Geneva. [https://qmro.qmul.ac.uk/xmlui/bitstream/handle/123456789/8665/Schaffstein\\_S\\_PhD\\_Final.pdf](https://qmro.qmul.ac.uk/xmlui/bitstream/handle/123456789/8665/Schaffstein_S_PhD_Final.pdf)

<sup>2</sup> Born, G. B. (2021). *International commercial arbitration* (3rd ed.). Kluwer Law International.

<sup>3</sup> Radicati di Brozolo, L. G., & Ponzano, F. (2024). How to assess the res judicata effects of international arbitral awards: Giving concreteness to an autonomous approach. *Arbitration International*, 40(4), 409–443. [https://eclass.uoa.gr/modules/document/file.php/LAW785/2025.05.26\\_%CE%94%CE%B9%CE%B1%CE%B9%CF%84%CE%B7%CF%83%CE%AF%CE%B1/Radicati%20di%20Brozolo%20%26%20Ponzano%20%282024%29%20%20How%20to%20assess%20the%20res%20judicata%20effects%20of%20international%20arbitral%20award%20s%20%2840%20ArbInt%20409%29.pdf](https://eclass.uoa.gr/modules/document/file.php/LAW785/2025.05.26_%CE%94%CE%B9%CE%B1%CE%B9%CF%84%CE%B7%CF%83%CE%AF%CE%B1/Radicati%20di%20Brozolo%20%26%20Ponzano%20%282024%29%20%20How%20to%20assess%20the%20res%20judicata%20effects%20of%20international%20arbitral%20award%20s%20%2840%20ArbInt%20409%29.pdf)

<sup>4</sup> International Law Association. (2006). *Final report on res judicata and arbitration*. ILA Committee on International Commercial Arbitration. <https://www.ila-hq.org/>

Res judicata tamoyili sud tizimida qadimdan shakllangan bo'lib, uning asosiy maqsadi bir marta hal etilgan nizo yana qayta ko'rib chiqilishiga yo'l qo'ymaslikdir<sup>5</sup>.

Bu tamoyil fuqorolik protsessual huquqida ham, xalqaro tijorat arbitrajida ham muhim o'rin tutadi. Lekin, arbitraj sudlari davlat sudlaridan farqli ravishda transmilliy xususiyatga egaligi sababli, tamoyilning qo'llanilishi xalqaro tijorat arbitrajida yanada murakkab tus olmoqda. Res judicata arbitraj jarayonida qarorlarning yakuniyligini ta'minlab, arbitraj qarorlarining xalqaro miqiyosda tan olinishi va ijro etilishi uchun asos vazifasini bajaradi<sup>6</sup>.

Res judicata odatda uch asosiy elementga tayanadi:

- Nizodagi tomonlar bir xil bo'lishi;
- Da'vo yoki talab bir xil huquqiy asosga tayanishi;
- Nizoning predmeti bir xil voqelik yoki huquqiy munosabatga tegishli bo'lish<sup>7</sup>;

Bu uchlik talabi xalqaro arbitrajda ham asosiy mezon sifatida qabul qilingan bo'lsa-da, amaliyotda hakamlar tribunalining tan olishi ko'pincha arbitraj shartnomasining talqiniga, tanlangan moddiy va protsessual huquqqa yoki tribunalning o'z yondashuviga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, xalqaro arbitrajdagi res judicata tamoyili davlat sudlaridagi kabi qat'iy qo'llanilmaydi. Hakamlar hay'ati ba'zan avvalgi qarorni faqat muayyan masalalar bo'yicha, yoki faqat faktlarning aniqlanishi nuqtai nazaridan tan olishi mumkin. Ba'zida esa qaror faqat protsessual jihatdan ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Bu arbitrajdagi elastiklikni oshirsa-da, qarorlarning xalqaro darajada barqarorligi masalasida turli qarama-qarshi yondashuvlar mavjudligini ham namoyon etadi

Shu sababli res judicata tamoyilining nazariy asoslarini chuqur o'rganish O'zbekistonning arbitraj tizimi rivojlanishida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xalqaro arbitrajda qarorlarning takror ko'rib chiqilmasligi, ularning tan olinishi va ijro etilishi jarayonida res judicata muhim omil bo'lib, ushbu tamoyilning huquqiy tafsilotlarini milliy va xorijiy tajribalar asosida aniqlashtirish zarurati mavjud.

## **2.O'zbekiston qonunchiligida res judicata tamoyilining qo'llanilishi**

O'zbekistonda res judicata tamoyili sud-huquq tizimining asosiy protsessual prinsiplaridan biridir. O'zbekistonda "Arbitraj sudlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi arbitraj jarayonining huquqiy asoslarini mustahkamladi va xususiy arbitraj institutlarining nizolarni ko'rib chiqishdagi o'rini belgilab berdi<sup>8</sup>. Qonunda arbitraj sudining qarori yakuniy va majburiy kuchga ega ekani, taraflar uni bajarishi shartligi ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, arbitraj qarorining res judicata sifatida tan olinishi mazkur qarorning shartnomaning amal qilish doirasida hal qilingan nizoga tatbiq etilishiga bog'liq.

Arbitraj qarorlarining O'zbekistonda tan olinishi va ijro etilishi Nyu-York konvensiyasiga muvofiq amalga oshiriladi. O'zbekiston 1996 yilda Konvensiyaga qo'shilgan bo'lib, bu xalqaro arbitraj qarorlarining ijro etilishiga keng imkoniyat yaratdi. Konvensiya asosida arbitraj qarorining tan olinishi uchun zarur talablar belgilangan: tribunalning vakolatli bo'lishi, taraflarning tengligi, xabardor qilinganligi, qarorning yakuniyligi va mazmunan hal qilinganligi.

<sup>5</sup> Schaffstein, S. (2012). *The doctrine of res judicata before international arbitral tribunals* (Doktorlik dissertatsiyasi). Queen Mary University of London & University of Geneva. [https://qmro.qmul.ac.uk/xmlui/bitstream/handle/123456789/8665/Schaffstein\\_S\\_PhD\\_Final.pdf](https://qmro.qmul.ac.uk/xmlui/bitstream/handle/123456789/8665/Schaffstein_S_PhD_Final.pdf)

<sup>6</sup> Born, G. B. (2021). *International commercial arbitration* (3rd ed.). Kluwer Law International.

<sup>7</sup> Redfern, A., & Hunter, M. (2009). *Law and practice of international commercial arbitration*

<sup>8</sup>O'zbekiston Respublikasi "Arbitraj sudlari to'g'risida"gi Qonun <https://lex.uz/docs/-5294106>

Ushbu mezonlar res judicata tamoyili bilan uyg'unlashadi, chunki konvensiya qayta ko'rib chiqilishga yo'l qo'ymaydi<sup>9</sup>.

Milliy sud amaliyotida arbitraj qarorlarining res judicata sifatida tan olinishi masalasida ayrim muammolar kuzatilgan. Jumladan, ayrim holatlarda sudlar arbitraj qarorini ijroga qaratishda asossiz ravishda mazmunan tekshirgan yoki taraflarning avval hakamlar hay'ati tomonidan hal etilgan masalalarni qayta ko'rib chiqqan holatlar mavjud. Bu esa res judicata tamoyilining buzilishiga va arbitrajning xalqaro standartlarga mos barqaror ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi<sup>10</sup>.

Res judicata tamoyilining O'zbekistonda qo'llanishi bo'yicha ilmiy adabiyotlar ham ushbu masalani muhim deb baholaydi. Ayrim tadqiqotchilar arbitraj qarorlarini tan olishda sudlarning aralashuv chegaralari aniq belgilanmaganini, bu esa qarorlarning yakuniyligiga zarar yetkazishi mumkinligini ta'kidlaydi<sup>11</sup>. Amaliyotda ayniqsa arbitraj shartnomasining haqiqiyliigi, tribunalning vakolati va protsessual normalar buzilgan-buzilmaganligini baholashda res judicata bilan bog'liq kollizion holatlar yuzaga chiqadi.

O'zbekiston sudlari tomonidan arbitraj qarorlarining tan olinishi masalasi bo'yicha barqaror yondashuv shakllanishi uchun xalqaro amaliyot, xususan Shveysariya va Shvetsiya tajribasini qo'llash arbitraj tizimini yanada barqaror qilishga yordam beradi. Bu davlatlar arbitraj jarayoniga sudlarning minimal darajada aralashuvi, qarorlarning qat'iy yakuniyligi va res judicata tamoyilining to'liq e'tirof etilishi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda ham arbitraj qarorlarining takror ko'rib chiqilmasligi bo'yicha aniq protsessual normalarni mustahkamlash xalqaro investorlar uchun ishonchni oshiradi.

Shu bois res judicata tamoyilining samarali qo'llanishi, arbitraj qarorlarining tan olinishi va ijrosi bo'yicha milliy protseduralarni takomillashtirish O'zbekistonning arbitraj tizimini yanada xolis, barqaror va xalqaro standartlarga mos darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **3. Shveysariya va Shvetsiya tajribasida "res judicata" tamoyilini qo'llash**

Shveysariya va Shvetsiya xalqaro tijorat arbitraji rivojlangan mamlakatlardanligi sababli, ularda res judicata tamoyili qo'llashda o'ziga xos yondashuvi bor. Ayniqsa, Shveysariya xalqaro arbitraj yurisdiksiyalarining eng kuchli va ishonchli tizimlaridan biri bo'lib, u yerda arbitrajga nisbatan sudlarning minimal aralashuvi, qarorlarning yakuniyligi va avtonom yondashuv asosiy prinsip sanaladi<sup>12</sup>. Shveysariya Xalqaro xususiy huquq to'g'risidagi federal qonunida arbitraj jarayoni, tribunal vakolati, qarorlarning yakuniyligi va ularning res judicata sifatida tan olinishi bo'yicha aniq normalar belgilangan<sup>13</sup>. Ushbu qonunchilikka ko'ra, hakamlar hay'ati tomonidan chiqarilgan qaror davlat sudlari tomonidan mazmunan qayta ko'rib chiqilmaydi, faqat cheklangan asoslar bo'yicha bekor qilinishi mumkin. Bu esa res judicata tamoyilining mustahkam qo'llanishini ta'minlaydi.

<sup>9</sup> United Nations. (1958). Convention on the recognition and enforcement of foreign arbitral awards (New York Convention). <https://www.newyorkconvention.org>

<sup>10</sup> Khalilova, Z. (2020). Practice of commercial arbitration and recognition and enforcement of foreign arbitral awards concerning disputes in Uzbekistan: A comparison with Germany (Doktorlik dissertatsiyasi). <https://d-nb.info/1339302721/34>

<sup>11</sup> Nurmuxammedova, F. F. (2025). O'zbekiston Respublikasida investitsiya shartnomalari va arbitraj institutlarini takomillashtirish masalalari. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan

<sup>12</sup> Schaffstein, S. (2012). *The doctrine of res judicata before international arbitral tribunals* (Doktorlik dissertatsiyasi). Queen Mary University of London & University of Geneva. [https://qmro.qmul.ac.uk/xmlui/bitstream/handle/123456789/8665/Schaffstein\\_S\\_PhD\\_Final.pdf](https://qmro.qmul.ac.uk/xmlui/bitstream/handle/123456789/8665/Schaffstein_S_PhD_Final.pdf)

<sup>13</sup> Swiss Federal Council. (2021). Swiss Private International Law Act (PILA). <https://www.fedlex.admin.ch>

Shveysariyada Tribunal arbitraj qarorlari kuchini keng talqin qilishi natijasida, taraflar boshqa yurisdiksiyalarda ham takror da'vo qo'zg'atolmaydi<sup>14</sup>. Bundan tashqari, Shveysariya arbitraj amaliyotida, "keng talqin<sup>15</sup>" qo'llanilishi sababli nafaqat dispozitiv qismi, balki uning asoslantiruvchi xulosalari ham res judicata doirasiga kiritilishi mumkin<sup>16</sup>. Bu yondashuv arbitraj jarayonida barqarorlik va ishonchlikni kuchaytiradi.

Shveysiya arbitraj tizimi ham xalqaro miqyosda samarali va ishonchli tizim sifatida tan olingan. Shveysiyada "Arbitraj tog'risida"gi qonunida arbitrajning mustaqilligini, hakamlar hay'ati vakolatining keng doirasini va sudlarning cheklangan aralashuvini belgilab beradi<sup>17</sup>.

Shveysiyada sudlar arbitraj qarorlarining mazmunan to'g'riligini tekshirmaydi faqatgina tribunal vakolatsizligi va tomonlarga birlidirishnomalar yetib bormagan bo'lgandagina qaror bekor qilinishi ham res judicata bu davlatda barqarorligiga isbotdir.

Shveysiyada res judicata tamoyili fuqarolik protsessual normalariga asoslanadi, biroq arbitraj jarayoniga nisbatan amaliyotda yanada moslashuvchan tarzda qo'llaniladi. Shveysiya Oliy sudi bir qator qarorlarida arbitraj qarorlari bo'yicha res judicata tamoyilini faqat "bitta da'vo – bitta hal etish" prinsipiga emas, balki nizoning mazmunan hal etilgan qismlariga ham tatbiq etilishini tasdiqlagan<sup>18</sup>. Bundan tashqari, Shveysiya amaliyotida "protsessual iqtisod tamoyili" ham res judicata bilan birgalikda qo'llanilib, taraflarga bir xil holat bo'yicha takror ish yuritish imkonini bermaydi.

Shveysiya Arbitraj Markazi tomonidan ko'rib chiqilgan ishlarda tribunal res judicata masalasida avtanomlik yondashuvini qo'llashi natijasida res judicata tamoyillarining qo'llanishi hakamlar shartnomasi va xalqaro arbitraj amaliyoti bilan talqin qilindi, bu esa arbitrajning xalqaro moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Shveysariya va Shveysiya tajribalarini tahlil qilish orqali ulardagi res judicata yondashuvlarini O'zbekistonga ham tatbiq qilishimiz natijasida, O'zbekiston arbitrajini yanda barqaror va investorlar uchun ishonchli bo'lishiga bir qadam qo'ygan bo'lamiz. Xorijiy davlatlar modelining tatbiq qilinsa xuddi ulardagi kabi O'zbekistonda ham res judicata tamoyili aniq va sudlar tomonidan izchil qo'llaniladi.

### **Xulosa.**

Xalqaro tijorat arbitrajida res judicata tamoyilini qo'llash arbitrajning muhim elementlaridan biri bo'lib, u nizolarni takror ko'rib chiqishni oldini oladi, arbitraj qarorlarining barqarorligini oshiradi va arbitraj sudlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Mazkur tamoyilning nazariy-huquqiy asoslari, O'zbekiston qonunchiligi va sud amaliyoti hamda Shveysariya va Shveysiya kabi rivojlangan arbitraj yurisdiksiyalari tajribasi asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, res judicata bir vaqtning o'zida ham protsessual, ham moddiy-huquqiy barqarorlikni ta'minlaydigan universal mexanizmdir.

O'zbekiston qonunchiligida res judicata tamoyili sud protsessida aniq belgilangan bo'lsada, arbitraj jarayonida tatbiq qilishda bir nechta noaniqliklar ham bor. Xususan, arbitraj qarorlarining mazmunan qayta ko'rib chiqilmasligi, sudlarning aralashuv chegaralari va qarorning yakuniy kuchi bo'yicha yagona amaliy yondashuv hali to'liq shakllanmagan.

<sup>14</sup> Swiss Federal Tribunal. (2020). Selected arbitration decisions. <https://www.bger.ch>

<sup>15</sup> Broad interpretation

<sup>16</sup> Gränicher, A. (2018). The scope of res judicata in Swiss arbitration law. ASA Bulletin

<sup>17</sup> Swedish Government. (2019). Swedish Arbitration Act (SFS 1999:116, amended 2019). <https://www.government.se>

<sup>18</sup> Supreme Court of Sweden. (2018). Case law on arbitration matters. <https://www.domstol.se>

Shu nuqtai nazardan Shveysariya va Shvetsiya tajribasi O'zbekiston uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Bu davlatlarda res judicata tamoyili nafaqat qonunchilikda, balki sudlar tomonidan izchil amalda qo'llanadi, hakamlar hay'ati qarorlarining barqarorligi qat'iy himoyalanaadi va davlat sudlari arbitraj ishlariga minimal darajada aralashadi.

O'zbekiston arbitraj tizimining izchil rivoji uchun res judicata tamoyilining aniq huquqiy talqinini shakllantirish, arbitraj qarorlarining qayta ko'rib chiqilishiga oid cheklolarni mustahkamlash hamda sudlar tomonidan arbitrajga aralashuvning aniq mezonlarini belgilash zarur. Shuningdek, xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan avtonom yondashuv elementlarini milliy tizimga mos ravishda joriy etish arbitrajning xalqaro standartlarga moslashuvchanligini oshiradi.

Mazkur tamoyilning amaliy qo'llanishini kuchaytirish O'zbekistonning investitsion va xalqaro arbitraj maydonida mamlakat obro'sining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

#### **I.Xalqaro konvensiyalar:**

1. Xalqaro konvensiyalar United Nations. (1958). Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards (New York Convention).  
<https://www.newyorkconvention.org>

#### **II.Milliy qonunchilik sud qarorlari va xalqaro normativ hujjatlar:**

2. O'zbekiston Respublikasi "Arbitraj sudlari to'g'risida"gi Qonun.  
<https://lex.uz/docs/-5294106>
3. Swiss Federal Council. (2021). Swiss Private International Law Act (PILA).  
<https://www.fedlex.admin.ch>
4. Swiss Federal Tribunal. (2020). Selected arbitration decisions.  
<https://www.bger.ch>
5. Swedish Government. (2019). Swedish Arbitration Act (SFS 1999:116, amended 2019). <https://www.government.se>
6. Supreme Court of Sweden. (2018). Case law on arbitration matters.  
<https://www.domstol.se>
7. International Law Association. (2006). Final report on res judicata and arbitration.  
<https://www.ila-hq.org>

#### **III.Kitoblar**

8. Born, G. B. (2021). International commercial arbitration (3rd ed.). Kluwer Law International.
9. Gaillard, E., & Savage, J. (Eds.). (1999). Fouchard, Gaillard, Goldman on international commercial arbitration. Kluwer Law International.
10. Schaffstein, S. (2016). The doctrine of res judicata before international commercial arbitral tribunals. Oxford University Press  
[https://qmro.qmul.ac.uk/xmlui/bitstream/handle/123456789/8665/Schaffstein\\_S\\_PhD\\_Final.pdf](https://qmro.qmul.ac.uk/xmlui/bitstream/handle/123456789/8665/Schaffstein_S_PhD_Final.pdf)

#### **IV.Maqolalar va ilmiy tadqiqotlar:**

11. Gränicher, A. (2018). The scope of res judicata in Swiss arbitration law. ASA Bulletin

12. Radicati di Brozolo, L. G., & Ponzano, F. (2024). How to assess the res judicata effects of international arbitral awards: Giving concreteness to an autonomous approach. *Arbitration International*
13. Khalilova, Z. (2020). Practice of commercial arbitration and recognition and enforcement of foreign arbitral awards concerning disputes in Uzbekistan: A comparison with Germany (Doktorlik dissertatsiyasi).
14. Nurmuxammedova, F. F. (2025). O'zbekiston Respublikasida investitsiya shartnomalari va arbitraj institutlarini takomillashtirish masalalari. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*
15. The doctrine of res judicata before international arbitral tribunals (Doctoral dissertation). Queen Mary University of London & University of Geneva.